

# **Presuppozitsiya – sintaktik strukturaning ikkilamchi ma’nosi**

**SH. Mahudov QDPI magistrant**

O'tgan asrlardan to hozirgi kunga qadar bo'lgan davrda tilshunoslik sohasi asosan ikki tarmoq asosida o'rganib kelindi. Bu tarmoqlarning biri system struktuk tilshunoslik bo'lsa, ikkinchisi an'anaviy tilshunoslik nomi bilan yurutildi. Tilshunoslik sohasidagi bu ikki yo'nalishning o'xshash va farqli jixatlari F.D.Sosyur, G.Ostgof, K.Brugman, G.Paul, Ya.Grimm, F.F Fortunatov, A.M Meshkovskiy, V.V Vinogradov singari buyuk tilshunos olimlarning ishlarida ko'rsatib, ularning tafsilotlari to'laqonli ravishda yoritib berildi<sup>1</sup>. Xususan, F.De.Sosyur tilning doimiy ikki ziddiyat asosiga qurilganligini ta'kidlab, til va nutq masalalariga jiddi e'tibor qaratadi. Olim bu qarashi bilan ilk bor tilshunoslik sohasidagi ikkita katta bo'linishga , sistem struktur va ananaviy tilshunoslikka asos soladi.

Sistem struktur tilshunoslik asosiy e'tiborini nutq masalalariga qaratib, til birliklarining nutq vaziyati, so'zlovchi va tinglovchilarning til haqidagi umumiy bilimlari, insonning ichki subruhiyati bilan bog'liq jixatlarni o'rganishni o'z oldiga dolzarb masala sifatida qo'ydi.<sup>2</sup> Bu masalalarning barchasi lingvistik pragmatikaning o'rganish obyekti sifatida olimlarning e'tiborini tortdi.

Dastlabki paytlarda alohida soha sifatida o'rganilmay kelgan lingvistik pragmatika sohasi tilshunoslikda dastlab XIX asr oxiri XX asr boshlarida Ch . Pirs, U.U Djems, D.Dyun, Ch Morris singari olimlar olimlar tomonidan o'rta tashlandi<sup>3</sup>. Bugungi kun o'zbek tilshunosligi olimlaridan biri M. Hakimov pragmatika sohasini o'rganar ekan, lingvistik pragmatikaning o'rganish masalalariga alohida to'xtalib uning umumiy va xususiy masalalarini yoritib beradi. Jumladan, lingvistik pragmatikaning xususiy masalalariga to'xtatalar ekan, bu masalalarning nutq obyekti, nutq subyekti va nutq masalari bilan bog'liq ravishda yuzaga chiqishini ko'rsatib o'tadi<sup>4</sup>

---

<sup>1</sup>Madrahimov I Soz serqirraligi va uni tasniflash asoslari -Farg'ona, -2005 – B. 13

<sup>2</sup>Burxonov Z "O'zbek tilida ko'makchilar va ularga vazifadosh kelishiklar pragmatikasi( presuppozitsiyasi)" Filol. Fan.nom.diss. – Toshkent 2008. –B 9.

<sup>3</sup>Burxonov Z "O'zbek tilida ko'makchilar va ularga vazifadosh kelishiklar pragmatikasi( presuppozitsiyasi)" Filol. Fan.nom.diss. – Toshkent 2008. –B 9.

<sup>4</sup> Hakimov.M. "O'zbek tili pragmatikasini o'rganish " Us. qol. - Farg'ona - 2011. –b .19.

Olimning pragmatikani ikkiga bo'lib, uning hususiy tomonini nutq masalalariga qaratar ekan, presuppozitsiya hodisasini ham ikkilanmay pragmatikaning o'rganish birligi sifatida qarash mumkin.

Presuppozitsiya hodisasi muloqot qatnashchilarining nutqiy tejamlilikka ehtiyoji, til birliklarining nutqiy vaziyatda sintaktik strukturaga qo'shimcha ikkilamchi ma'lumot berish imkoniyatiga egaligi, suhbat qatnashchilarining bo'lib o'tgan yoki bo'lajak jarayon haqidagi oldindan ma'lum bilimlari kabi omillar ta'sirida nutqiy maydonga chiquvchi hodisadir.

Presuppozitsiyaning o'rganilish tarixi o'ziga xos bo'lib, uni o'rganish bilan dastlab tilshunoslar emas, balki mantiqshunoslar shug'ullanib, hayotga tadbqiq etganlar. Jumladan, presuppozitsiya tushunchasi mashhur mantiqshunos olim G.Frege goyalari bilan bog'liq bo'lib, uning fikricha, presuppozitsiya *hukumning tabiiy asosi* sifatida o'rganilishi lozim.<sup>1</sup>

Bugungi kunga qadar presuppozitsiya, **prezumtsiya, tagbilim, ichki ma'no, monema, pragmatik ma'no, sintagmatik ma'no hukumning tabiiy asosi, so'zlovchining bilish fondi, ularning oldindan kelishuvi, oldindan ma'lum bilimlarning jami**<sup>2</sup>atmalari ostida o'rganib kelindi. Bizning fikrimizcha,

---

<sup>1</sup>Nurmonov A, Mahmudov N "O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi" o'q. qo'l.-Toshkent. – 2007.

<sup>2</sup>Burxonov Z "O'zbek tilida ko'makchilar va ularga vazifadosh kelishiklar pragmatikasi( presuppozitsiyasi)" Filol. Fan.nom.diss. – Toshkent 2008. –В 11. Арутюнова Н.Д. Понятие пресуппозиции в лингвистике // Известие АН СССР. Серия лит. и яз. - 1973. Т.32. Вып. №1. - Б. 85; Падучева Е.В. О понятие презумпции в лингвистической семантике / Семиотика и информатика. - М., 1977; Кифер Ф. О пресуппозициях // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 8. - М., 1978. - Б. 367; Демьянков В. Прагматические основы интерпретации высказывания // Известие АН СССР. Серия лит. и яз., 1981. Т.40. - №4. - Б. 368 - 377. / [http://www.infolex.ru/IZV4\\_81.html](http://www.infolex.ru/IZV4_81.html); Махмудов Н. Пресуппозиция ва гап // Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент. - 1986. - №6. - Б. 42-45; Нурмонов А. Кўмакчилик конструкциялар пресуппозицияси // Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент. - 1986. - №6. - Б. 42-45; Махмудов Н. Ўзбек тили стилистикасининг долзарб масалалари // Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент. - 1990. - №2. - Б. 95; Нурмонов А. Гапнинг пресуппозиция аспекти / А.Нурмонов ва бошқалар. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. - Тошкент: Фан, 1992. - Б.113-120; Рахимов У. Ўзбек тилида юкламалар пресуппозицияси: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. - Самарқанд, 1994. - Б. 11-14; Шу муаллиф. Ҳам юкламасининг пресуппозицияси // Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент. - 1994. - №3. - Б. 58-62; Лутфуллаева Д. Ўрнига кўмакчилик конструкциялар пресуппозицияси // Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент. - 1996. - №5. - Б. 46-48; ва бошқалар.

presuppozitsiyahodisasini **Sintaktikstrukturaning ikkilamchima'nos**i atamasini ostid  
a'rganish ham xatobo'lmaydi.

Chunki har qanday presuppozitsiyahodisasi kuzatilgan Sintaktikstrukturaning tahlil qilare  
kanmiz,

unda ifodalangan presuppozitsiya sintaktik strukturada bevosita ishti roketmay,  
strukturaning ifodalagan ikkilamchima'nos i sifatida yuzaga chiqishini ko'rishimiz mu  
mkin. Biron bir presuppozitsiya hodisasi kuzatilgan gap yo'qki, gapda  
ifodalanayotgan asosiy ma'no bevosita ifodalanayotgan proppozitsiyadan emas,  
balki ma'lum bir tashqi signallar yoki nutqiy vaziyat orqali yuzaga chiqayotgan  
presuppozitsiyadan

anglashilsa. Shunday ekan biz presuppozitsiyahodisasi haqidagi ishlarimizni **Sintaktik  
strukturaning ikkilamchi  
ma'nosiyoki Ikkilamchima'no** atamalari ostida berishta rafdorimiz.